



## O'QUVCHILARDA VOKAL-XOR MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Qutliyeva Gulmira Durdimurotovna*

BuxDU pedagogika institutining 70111301- Musiqa ta'limi va san'at mutaxassisligi bo'yicha  
2-bosqich magistranti

*Karimov Olimxo'ja Islomovich*

Buxoro davlat universiteti musiqa ta'limi kafedrası dotsenti

*Annotatsiya:* Asosiy vazifalardan biri ovoz xosil qilish malakalari va fiziologiyasini o'rganish hamda uni amalda qo'llay olish, shuningdek, vokal-xor malakalarini rivojlantirish va amaliy ko'nikma xosil qilishdan iborat. O'quvchilarning vokal-xor malakalarini rivojlantirish musiqanining sir-sinoatlarini bilish, nazariy va amaliy savodxonligini o'stirishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

*Kalit so'zlar:* milliy ma'naviy qadriyatlari, urf-odatları VA an'analar.

### Vokal-xor malakalarini shakllantirishning maqsadi.

Musiqa ta'limining katta e'tibor bergan O'rta Osiyolik mashhur musiqachilar orasidagi olim Al-Farobiy yosh avlodni tarbiyalash o'qitish masalalariga ko'plab ilmiy va amaliy g'oyalar bildiradi. U shuningdek, musiqa nazariyasining asoschisi hamdir. Taniqli olim, faylasuf, musiqashunos Jomiyning "Risolai dar ilmi musiqa" nomli kitobida kompazitsiya, lad, ritm nisbatlari haqida yozilgan. O'zbek shoiri Alisher Navoiy ham musiqa san'ati sohasida nixoyatda katta bilimga ega bo'lgan edi. Uning musiqaviy estetik qarashlari "Sabbai-Sayyor", "Maxbub-ul qulub", "Xamsa" kabi asarlarida aks etgan.

Hammamizga ma'lumki, qo'shiq kuylashdan oldin ovoz sozlash mashqlari olib boriladi. Bunda vokal-xor malakalarini shakllantirishning asosiy maqsadi – o'quvchilar ovozlarining tabiiy xususiyatlarini, yengil, yorqin va jarangdorligini saklagan xolda, ovoz apparatini mustahkamlash hamda ovoz diapazonini kengaytirish, shuningdek qo'shiq kuylash malakalarini rivojlantirish. Vokal-xor malakalari oddiydan-murakkabga prinsipi asosida qo'shiq kuylashga asta-sekin tayyorlab boriladi:

1. Eng oddiy mashqlarni ham solfedjio qilib kuylash lozim, chunki notalar nomi yordamida tovush balandligi o'quvchilar xotirasida saklanib koladi.
2. Vokal-xor mashqlari har doim o'rta tovush sol yoki ishchi diapazondagi tovushlar mi, fa, soldan boshlash maqsadga muvofiq, chunki past yoki baland tovushlarda o'quvchilar sof intonatsiyada kuylay olmaydilar.
3. Mashqlarni ko'rgazmali vositalar (plakatlar, doskadagi yozuvlar, kartochkalar, rasmlar) yordamida olib borish hamda o'qituvchi tomonidan ijro yetib berilishi o'quvchilarning diqqat, xotira va eshitish qobiliyatini yanada o'stiradi.
4. O'quvchilarda asta-sekin ikki ovozda kuylash malakalarini rivojlantirib boriladi. Bu ularning garmonik eshitish qobiliyatini, lad-tonal sezgisini shakllantiradi.



5. Vokal-xor mashqlarini olib borish jarayonida har xil didaktik o'yinlardan, rebus, topishmoq (tushirib qoldirilgan notani topish)lardan foydalanish.

**Bu kabi vokal-xor tamoyillarini qo'llash orqali o'quvchilarda sof unisonda uyg'un va ravon kuylash malakalari shakllanadi. Bunda quyidagi vokal-xor mashqlari qo'llaniladi:**

1. Sof unison xosil qilish mashqlari
2. Ovozni rivojlantirish mashqlari
3. Artikulyasiya apparatini rivojlantirish mashqlari
4. Keng nafas xosil qilish mashqlari
5. Ikki ovozda kuylash malakalarini xosil qilish mashqlari

O'quvchilarda vokal-xor malakalarini xosil qilish uchun turli xil mashqlardan foydalanish kata ahamiyatga ega. Chunki, aynan vokal-xor malakalari vositasida o'quvchilar ovozini yoqimli va jarangdor qilib tarbiyalash mumkin.

**Vokal-xor malakalari olti turga bo'linadi:**

1. Qo'shiq kuylash xolati.
2. Ashulachilik nafasi.
3. Ovoz xosil qilish.
4. Sozlanish.
5. Ansambl.
6. Talaffuz.

O'quvchilar mashq yoki qo'shiqlarni kuylash vaqtida o'qituvchining qo'l ishoralariga karab nafas olish va uni tejab chiqarish, bir vaqtda boshlab, bir vaqtda tugatishga o'rgatib borish lozim. Shuningdek bakirmasdan yumshoq va mayin vokal ovozi kuylashlariga e'tibor berib borish muhim sanaladi.

Teatrshunos olim M.Rahmonovning yozishicha "Kishilik tarixining ilk bosqichlarida musiqa ham pantomima va raqs san'ati bilan uzviy bog'liq holda maydonga kelgan. U O'zbekiston hududida yashagan ibtidoiy jamiyat odamlari hayoti va mehnat faoliyatining ajralmas qismini tashkil etgan. Ibtidoiy davrdagi eng ilk qo'shiqlar juda sodda bo'lardi. "Ov o'yini" va turli marosimlarda pantomim raqs o'yinlarini olib boradigan "musiqa" va "qo'shiqlar" asosan so'z va tovushni takror-takror qaytaruvchi ohang va rechitativlardan tashkil topardi".

Xor jamoasining asosini undagi vokal xor ishlari tashkil qiladi. Vokal xor kompleks ishlari xorning muvaffaqiyatli faoliyati uchun zamin yaratadi. Xorda vokal ishlarining sifat darajasi xor dirijyorining malakasiga, vokal qobiliyati va pedagoglik mahoratiga bog'liq. Xorda olib boriladigan vokal ishlarining maqsadi, xonandalarda to'g'ri kuylash malakalarini o'stirishdir. Vokal ishlariga:

- xorning muhim elementlari ustida ishlash (hamohanglikka, yaxshi so'zga, so'z talaffuziga, badiiy ifoda vositalariga erishish);
- to'g'ri nafas olish, vokal tovush barpo qilish va uni shakllantirish;
- Xor kollektivi a'zolarini bir xil vokal malakalariga ega qilish kabilar kiradi. Xor ijrosining muhim elementlarini barpo qilish uning vokal xor texnikasiga bog'liq. Vokal xor texnikasiga



asosan, nafas, tovush hosil qilish, uni choʻzish, dinamika, intonatsiya va diksiya malakalari kiradi.

Xor kollektivi yaxshi vokal texnikaga ega boʻlmasa, u xorning ijrosida na uygʻunlik (ansambl), na tiniq soz, na aniq talaffuz va badiiy ifoda boʻladi. Shuning uchun xorda har doim vokal xor texnikasini rivojlantirish va ularni takomillashtirib borish zarur. Chunki xorda yaxshi ansamblga, sozga, dinamik mustahkamlik mustaxkam boʻlishi kerak. Xorda vokal shunchalik muhim ahamiyatga ega ekanki, xor rahbari vokal pedagogikasini yaxshi bilishi va oʻzi yaxshi ijro eta olishi talab qilinadi. xonandalar esa ovoz gigienasini bilishi va ovozlarni ehtiyot qilib yurishlari kerak. Tovushni shamollatish, ovoz pardalarini toliqtirish qattiq qichqirish (xususan havaskorlik xorlarida) hollari xorda vokal ishlari saviyasini pasaytiradi.

Rahbar har doim vokal tarbiyasi ustilda ish olib borishi, xorning ish faoliyatini shu tarbiya asosida boshqarishi va xorning chiroyli, ifodali jarangiga erishmogʻi kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Z.A.Raxmonqulova va boshqalar. Maktabgacha taʼlim muassasalari rahbar xodimlarini oʻqitish boʻyicha seminar modullari. Toshkent - 2010.
2. N.N.Azizxoʻjaeva "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" Oʻzbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgʻarmasi nashriyoti. Toshkent-2006.
3. Internet saytlari materiallari.
4. Bolaga yoʻnaltirilgan taʼlim dasturi.T.2010 y
5. Bolaga yoʻnaltirilgan taʼlim dasturini tashkil etish.2012 y
6. O.I.Karimov Значение специфических особенностей и воспитательных возможностей узбекских народных инструментов - Academy, 2020
7. O.I.Karimov ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ МУЗЫКАЛЬНЫЕ ВЗГЛЯДЫ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ МУЗЫКИ - Вестник науки и образования, 2020
8. O.I. Karimov TANBUR SOZINING PAYDO BOʻLISHI VA MILLIY CHOLGʻU IJROCHILIGIDAGI OʻRNI- Scientific progress, 2021
9. O.I.Karimov САДРИДДИН АЙНИ-ЗНАТОК И ЛЮБИТЕЛЬ НАРОДНОЙ МУЗЫКИ - Вопросы науки и образования, 2021